



**XORAZM VILOYATI STATISTIKA  
BOSHQARMASI**



**XORAZM VILOYATINING  
SANOAT  
ISHLAB CHIQRISHI**

*2022- YIL YANVAR-IYUL  
(DASTLABKI MA'LUMOT)*




## Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-iyul oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 9 606,7 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 115,5 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelgan va uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,4 %ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 13,6 %ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 54,0 %ga o'sishi kuzatildi, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati – 65,3 %ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning – 2,1 %ga kamayishi kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,5 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,016 %ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd so'm

Yanvar-iyul

FHI,% da



2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9 257,3 mlrd so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,4 %ini tashkil etdi.

2021- yil  
Yanvar-iyul


96,1 %

2022- yil  
Yanvar-iyul

96,4 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,12 %ni (2021- yilning yanvar-iyul oylarida – 0,19 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 42,4 %ni (2021- yilning yanvar-iyul oylarida – 46,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 3,6 % (2021- yilning yanvar-iyul oylarida – 5,7 %) va quyi texnologiyali – 50,3 % (2021- yilning yanvar-iyul oylarida – 43,2 %)ni tashkil etdi.

■ 2022- yil ■ 2021- yil




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 45,0 % (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,3 % (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 147,7 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 21,4 % (2021-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 89,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 28,7 % (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 165,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,6 % (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 74,9 %)ni tashkil etdi.


### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da \*


Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxtadan yigirilgan ip




Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz)



Maxsus yengil avtomobillar





2022- yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda paxta tolasi 36 910,1 tonna (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 8,2 %ga oshgan), paxta chigiti 73 769,8 tonna (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 19,5 %ga oshgan), 18 093,4 tonna paxtadan yigirilgan ip (4,2 % oshgan), 39 779 dona yengil avtomobil (maxsus yengil avtomobillarsiz) (17,5 % oshgan), 11 008 dona maxsus yengil avtomobil (46,0 %ga oshgan), o'simlik yog'i 6 429,4 tonna (52,2 % kamaygan), xo'jalik sovuni 1 387,3 tonna (47,6 % kamaygan) hamda 52 634,3 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (102,6 % bo'lgan) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari                                      | 2021- yil yanvar-iyul | 2022- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|--|-----------------------|-----------------------|-----------|
| Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz),dona | 33862                 | 39779                 | 5917      |
| Maxsus yengil avtomobillar, dona                         | 7542                  | 11008                 | 3466      |
| Paxtadan yigirilgan ip,tonna                             | 17362,9               | 18093,4               | 730,5     |
| Paxta tolasi,tonna                                       | 34115,0               | 36910,1               | 2795,1    |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna                     | 51301,3               | 52634,3               | 1333      |
| O'simlik yog'i (tozalangan), tonna                       | 13438,4               | 6429,4                | -7009     |


Yanvar-iyul, yirik korxonalar bo'yicha

### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2020- yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,0 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 79,7 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,7 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 63,7 %ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 2 191,7 mlrd so'mni tashkil etdi.



### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati




2020- yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 93,7 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,1 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 73,0 %ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 468,8 mlrd so'mni tashkil etdi.

### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


2020- yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 125,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,9 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 88,5 %ni, ishlab chiqarish hajmi 1 936,6 mlrd so'mni tashkil etdi.



### Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2020- yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 185,4 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-iyul oylariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,9 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 55,8 %ni va ishlab chiqarish hajmi 85,3 mlrd so'mni tashkil etdi.



### Asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2020- yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,13 %ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 20,6 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,12 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 68,6 %ni va ishlab chiqarish hajmi 11,5 mlrd so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2020- yil yanvar-iyul oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 76,2 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 %ni, fizik hajm indeksi 58,1 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 36,0 mlrd so'mni tashkil etdi.







### Elektr uskunalar ishlab chiqarish

2020- yil yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 90,8 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 %ni, fizik hajm indeksi 146,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 23,0 mlrd so'mni tashkil etdi.



### Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish




2020- yil yanvar-iyul oylarida boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,20 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 75,4 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 %ni, fizik hajm indeksi 129,6 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 245,5 mlrd so'mni tashkil etdi.

### Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2020- yil yanvar-iyul oylarida avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 39,1 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 111,5 % .


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 40,9 %ni, fizik hajm indeksi 106,8 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3 788,4 mlrd so'mni tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 283,1 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,9 %ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 67,0 % ga oshganligi kuzatildi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| Sanoat mahsulotlari                                       | 2021- yil yanvar-iyul | 2022- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|-----------------------|-----------------------|-----------|
| Elektroenergiya, mln kVt.s                                | 100,2                 | 224,7                 | 124,5     |
| Issqlik energiyasi, ming gkal                             | 47,7                  | 45,1                  | -2,6      |
| Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, ming so'm | 1075346,0             | 1077687,0             | 2341      |

Yanvar – iyul, yirik korxonalar bo'yicha

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 64,8 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.



### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari  | 2021- yil yanvar-iyul | 2022- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|--|-----------------------|-----------------------|-----------|
| Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i> | 2766840,0             | 3559708,0             | 792868,0  |
| Tabiiy suv; suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>           | 74598210,0            | 75876673,0            | 1278463   |
| Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>                                     | 14096483,0            | 12265081,0            | -1831402  |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 28,7 %ga, tabiiy suv; suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 1,7 % ga oshganligi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6 076,7 mlrd so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 120,5 %ni, uning jami sanoatdagi ulushi 63,3 %ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil  
yanvar-iyul

39,0%

2022- yil  
yanvar-iyul

40,2%

### Nooziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil  
yanvar-iyul

61,0

2022- yil  
yanvar-iyul



59,8%

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 68,4%ni, Urganch shahrida 13,5 %ni va Urganch tumanida 3,4 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (120,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida (127,4 %), Gurlan tumanida (147,6 %), Yangibozor tumanida (197,4 %) hamda Urganch tumanida (149,8 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 68,4 %ni, Urganch shahrida 13,5 %ni va Urganch tumanida 3,4 %ni tashkil etdi.



 o'sish sur'ati  
 mlrd so'm

Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 81,6 %ni, shuningdek, Urganch shahrida 5,9 %ni, Yangibozor tumanida 1,9 %ni tashkil etdi.

3 077,5


mlrd so'm

2021-yil yanvar-iyul



3 634,1

mlrd so'm

2022-yil yanvar-iyul



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarning ulushi




|                    |       |        |
|--------------------|-------|--------|
| Xorazm viloyati    | 118,1 | 3634,1 |
| Urganch shahri     | 103,2 | 213,0  |
| Xiva shahri        | 127,5 | 56,0   |
| Bog'ot tumani      | 110,1 | 28,8   |
| Gurlan tumani      | 184,6 | 39,1   |
| Qo'shko'pir tumani | 94,2  | 28,8   |
| Urganch tumani     | 119,4 | 56,1   |
| Hazorasp tumani    | 119,3 | 25,9   |
| Tuproqqal'a tumani | 117,4 | 2963,9 |
| Xonqa tumani       | 104,9 | 67,8   |
| Xiva tumani        | 105,0 | 25,4   |
| Shovot tumani      | 103,7 | 27,2   |
| Yangiariq tumani   | 127,8 | 33,0   |
| Yangibozor tumani  | 435,2 | 69,2   |

o'sish sur'ati

mlrd so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 48,8 %ni, shuningdek, Urganch shahrida 25,0 %ni, Urganch tumanida 6,2 %ni tashkil etdi.






1 963,6 mlrd. so'm

2021-yil yanvar-iyul

2 442,5 mlrd. so'm

2022-yil yanvar-iyul



o'sish sur'ati

mlrd so'm

**Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 53,5 %, shuningdek, Urganch shahrida 16,8 %ni, Urganch tumanida 4,9 %ni, Shovot tumanida 4,0 %ni tashkil etdi.

**Xorazm viloyati**

**2021- yil**

7 127,3 mlrd so'm

**2022- yil**

9 606,7 mlrd so'm



**2021- yil**

109,8 %

**2022- yil**

115,5 %

|                    |       |         |
|--------------------|-------|---------|
| Xorazm viloyati    | 115,5 | 9 606,7 |
| Urganch shahri     | 112,0 | 1 611,1 |
| Xiva shahri        | 107,2 | 126,1   |
| Bog'ot tumani      | 105,0 | 214,8   |
| Gurlan tumani      | 140,5 | 293,2   |
| Qo'shko'pir tumani | 100,3 | 210,9   |
| Urganch tumani     | 114,1 | 475,0   |
| Hazorasp tumani    | 98,3  | 193,6   |
| Tuproqqal'a tumani | 116,4 | 5 140,8 |
| Xonqa tumani       | 105,2 | 343,3   |
| Xiva tumani        | 106,5 | 133,3   |
| Shovot tumani      | 101,8 | 386,4   |
| Yangiariq tumani   | 118,1 | 196,9   |
| Yangibozor tumani  | 116,4 | 257,5   |


FHI, % da

mlrd so'm



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Tuproqqal'a tumanida 90 392 ming so'm), Urganch shahrida (10 928,8 ming so'm) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (5 952,2 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.



**o'sish sur'ati**  
ming so'm

Xorazm viloyati

2021- yil

3 753,5 ming so'm

2022- yil

4 976,6 ming so'm



108,2 %


2021- yil

113,6 %

2022- yil

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 495,2 mlrd soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 15,6 %ni tashkil etdi.



### Xorazm viloyati

2021- yil

1 218,5 mlrd soʻm

2022- yil

1 495,2 mlrd soʻm



22,0 %

2021- yil

15,6 %

2022- yil

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 3 147,9 ming so'm bo'lgani holda, Tuproqqal'a tumanida 73 051,3 ming so'mni, Urganch shahrida 5 575,1 ming so'mni tashkil etdi.

**Xorazm viloyati**
**2021- yil**

2 654,8 ming so'm

**2022- yil**

3 147,9 ming so'm


**2021- yil**

112,4 %

**2022- yil**

118,6 %

|                    |       |          |
|--------------------|-------|----------|
| Xorazm viloyati    | 118,6 | 3 147,9  |
| Urganch shahri     | 125,5 | 5 575,1  |
| Xiva shahri        | 117,6 | 951,7    |
| Bog'ot tumani      | 106,2 | 564,1    |
| Gurlan tumani      | 145,2 | 625,0    |
| Qo'shko'pir tumani | 95,2  | 324,6    |
| Urganch tumani     | 146,8 | 1 008,4  |
| Hazorasp tumani    | 107,9 | 287,4    |
| Tuproqqal'a tumani | 114,7 | 73 051,3 |
| Xonqa tumani       | 113,9 | 992,0    |
| Xiva tumani        | 104,4 | 367,5    |
| Shovot tumani      | 101,5 | 496,9    |
| Yangiariq tumani   | 115,2 | 531,5    |
| Yangibozor tumani  | 194,2 | 1 108,4  |

*o'sish sur'ati*
*ming so'm*

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4 577 ta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 850 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 18,6 %) Urganch shahriga, 526 tasi (11,5 %) Urganch tumaniga, 412 tasi (9,0 %) Qo'shko'pir tumaniga, 405 tasi (8,8 %) Xonqa tumaniga va 379 tasi (8,3 %) Xiva shahriga to'g'ri kelmoqda.

